

АННОТАЦИЯ

Ушбу диплом лойиҳа ишини бажаришда 100000 дона “втулка 089” деталини тайёрлаш технологик жараёнини ишлаб чиқиш мавзуси ёритилган. Диплом лойиҳа ишида деталнинг иш вазифаси, заготовкани олиш усулини танлаш, ишлов бериш технологик жараёнларини танлаш, кесиш режимларини ҳисоблаш, жилвирлаш жараёни, базалаш хатолигини аниқлаш, детални штамплаш усули билан олинган заготовка материалдан фойдаланиш коэффициенти ва ишлов бериш вақтини лойиҳалаган. Лойиҳаланаётган диплом лойиҳаси юқори меҳнат самарадорлигига эришилади.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС

ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН МУҲАНДИСЛИК ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

**5320200-"Машинасозлик технологияси, машинасозлик ишлаб
чиқаришини жиҳозлаш ва автоматлаштириш" таълим йўналиши**

ДИПЛОМ ЛОЙИҲА ИШИ

**Мавзу: 100000 ДОНА “ВТУЛКА 089” ДЕТАЛИНИ
ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ**

Диплом лойиҳа ишини бажарди:

5320200-Машинасозлик технологияси, машинасозлик ишлаб
чиқаришини жиҳозлаш ва автоматлаштириш йўналишининг
4-курс 32-МТ-14 гуруҳ талабаси

Хасанбоев Ахроржон
Хасанбой ўғли

Кафедра мудири:

т.ф.д. Қ. Имомқулов

Диплом лойиҳа иши раҳбари:

т.ф.д. Қ. Имомқулов

Маслаҳатчилар:

Наманган– 2018 йил

MUNDARIJA:

KIRISH.....	
1. UMUMIY QISM.....	
1.1 Detalning xizmat vazifasi.....	
1.2 Ishlab chiqarish turini aniqlash.....	
2. TEXNOLOGIK QISM.....	
2.1 Detal konstruktsiyasini texnologiyaviylikka taxlili.....	
2.2 Zagotovka turini tanlash.	
2.3 Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish.	
2.4 Zagotovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi.....	
2.5. Kesish rejimini xisoblash.	
2.6. Vaqt me'yorini xisoblash.....	
3. KONSTRUKTORLIK QISM.....	
3.1 Dostgox moslamasini bayoni va xisobi	
3.2 Dostgox moslamasini aniqlikka xisobi.....	
3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va xisobi	
3.4 Tekshiruv moslamasini bayoni.....	
4. IQTISODIY QISM.....	
5. MEHNAT MUHOFAZASI QISMI.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar	

KIRISH

O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarlarida ta'kidlagandek Respublika iqtisodiyoti real sektori sohasida joxon moliya-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning hal qiluvchi ommillari: bazaviy tarmoqlarda modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jixozlash jarayonlarini faollashtirish, sifatli, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy moslanuvchan mini texnologiyalarni tadbiq etish; ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimiz ishlabchiqaruvchilari maxsulotlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish, eksport qiluvchi korxonalar tomonidan yangi tovarlar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish; iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish, jumladan, texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash, ishlab chiqarishda materiallar, elektr va energiya sarfini hamda boshqa sarf-harajatlarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish harajatlarini va mahsulot tannarhini keskin kamaytirish texnik va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, mahsulot sifatini boshqarishning halqaro standartlarini tadbiq etish; moslanuvchan narh-navo siyosatini amalga oshirish, jahon bozorlarida narh-navo konyukturasi tez o'zgarib borayotgan sharoitda eksport mehanizmlarini takomillashtirishdir

Jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha mashinasozlikdir. U sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. SHu sababli mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi sanoatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mashinasozlikning asosini mashinalarni loyixalash va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mashinalar o'z navbatida jamiyat turmush farovonligini ko'rsatadi. Ular ish unumdorligini, mehnat samaradorligini va mahsulot sifatini oshiradilar. Mustaqillikning boshlang'ich davridayoq, mamlakatimizda mashinasozlikni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Ko'plab qo'shma korxonalari mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Mashinalarga yuqori aniqlik va tezlik, issiqlikka chidamlilik, kichik vazn va xajm, mustahkamlik va ishonchlilik kabi yuqori talablar qo'yilgan. Bunday talablarni oshib borishi mashinasozlar oldiga murakkab konstruktorlik va texnologik savollarni qisqa vaqt ichida echish masalasini qo'ymoqda.

Mashinasozlik texnologiyasi ishlab chiqarish dasturiga asosan belgilangan muddat ichida talab etilgan sifat darajasida mehnat hamda moddiy resurslarni kam sarflagan holda mashina va mexanizmlar tayyorlash qonuniyatlarini o'rgatadi.

Mashinasozlikni rivojlanishida hozirgi kunda ikki yo'nalish asosiy va belgilovchi bo'lib qolmoqda. Bulardan biri ishlab chiqarish jarayonining va uni texnologik tayyorlashni intellektuallashtirish bu o'z navbatida loyixalash bo'limlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonlarida EXM lardan va avtomatlashtirish vositalaridan keng ko'lamda foydalanishdan iboratdir. Chunki intellektual loyixalash va ishlab chiqarish tizimlari tayyor mahsulot turining biridan ikkinchisiga o'tishining moslanuvchanligini ta'minlaydi. Ikkinchi yo'nalish inson ehtiyojini individualligini, bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda bir hil vazifani bajaruvchi turli ko'rinishdagi mashina va mexanizmlar yaratishdan iborat.

Respublikamizda iqtisodiyotida bugunki kunda jamiyatning yuksaltirish va ishlab chiqarishning yuksaltirishga katta e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoev tomonidan 2018 yilni "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanishi bejizga emas. Ishlab chiqilayotgan bir qator qonun va qarorlar avvalo, ishlab chiqarishni rivojlantirish va muhofazalashga qaratilgan. Buning zaminida mamlakatimiz oldida turgan eng muxim vazifalardan biri-xalq xo'jaligini yuksaltirish, fan va texnika taraqqiyotini dunyo miqyosiga olib chiqish yotadi. Ma'lumki, respublikamiz xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri-bu mashinasozlik sanoati ishlab chiqarishini yangi fan va texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etishdan iboratdir.

Ma'lumki, ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga yangi texnikani yetkazib beradigan mashinasozlik mamlakatning texnik jihatdan rivojlanishini belgilaydi va

yangi mustaqil respublikamizning moddiy bazasini yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun Respublikamizda mashinasozlikni rivojlantirishga har doim ham birinchi darajali ahamiyat berilgan va berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi qaror imzoladi. 2018 yilda YaIM ning o'sishi 5,9% darajasida bo'lishi rejalashtirilgan (2017 yilda bu ko'rsatkich -5,5% ni tashkil etgan). O'sish xajmi sanoat ishlab chiqarishda -6,4%, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishda -4%. Bundan ko'rinib turibiki, eng katta ko'rsatkich sanoat ishlab chiqarishning ulushigi to'g'ri kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Yuqorida qayd etilganidek 5320200-"Mashinasozlik texnologiyasi" ta'lim yo'nalishini bitiruvchilari yangi zamonaviy texnologik mashinalarni yaratish jarayonini mukammal bilishlari lozim. Mashinalarni yaratish jarayoni detallarni tayyorlash, ulardan qismlarni yig'ish, qismlardan mashinalarni yig'ish va ularni sinash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu jarayonlardan biri, ya'ni zamonaviy Metal qirqish vositalaridan foydalanib berilgan detalni tayyorlash texnologik jarayonini loyihalash bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifani bajarish bitiruvchilardan hozirgi zamon talablariga muvofiq xolda quyidagi vazifalarni o'rganib chiqishni va bajarishni taqazo qiladi:

1. Berilgan "Vtulka 089" detalining ishchi chizmasini chizish va konstruktiv tuzilishini chuqur o'rganib tahlil qilish;
2. Detal uchun eng maqbul material tanlash;
3. Detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonining operatsiyalar xaritasini tuzish;
4. Detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayoni uchun qo'yimlarni hisoblash va detal tayyorlamasining ishchi chizmasini chizish;
5. Detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayoni uchun kesish tartibini hisoblash;
6. Operatsiyalar eskizlarini chizish;

7. Bitta operatsiyada foydalaniladigan moslamani konstruksiyalash va yig'ma chizmasini chizish;
8. Mexanika tsexlarida ishlash jarayonida amal qilish lozim bo'lgan mehnat muhofazasi qoidalarini o'rganish;
9. Detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayoni uchun texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash;
10. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha xulosalar tayyorlash.

1. UMUMIY QISM

1.1 Detalni xizmat vazifasi

Bizga berilgan detalimiz mashinasozlikda, sanoatda, qishloq xojaligidagi mashina, mehanizm va uzellarda juda ko'plab foydalanadi. Detalimiz "vtulka 089" deb nomlanadi. Uning materiyali Po'lat 45 GOST 1050-74, og'irligi $m=0.195$ kg bo'lib o'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqiladi. Vtulka 089 nomli detalimiz mashinasozlikdagi metall kesuvchi dastgohlarni asosini tashkil qiladi. "Vtulka 089" nomli detalimiz mashina, gidravlik qurilmalarda, pnevmatik moslamalarda juda ko'plab foydalaniladi. Mashinasozlik dastgoxlari xalq xo'jaligi va sanoatda tutgan o'rni katta ahamiyatga ega.

Detalimizning asosiy yuzalariga yuzasi A uning yuza tozaligi Ra 2.5 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 6 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga E teshik bo'lib uning yuza tozaligi Ra 0.32 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 9 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga B yuza bo'lib uning yuza tozaligi Ra 1.25 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga D yuza bo'lib uning yuza tozaligi Rz 3.2 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 8 kv dadir. Yordamchi yuzalari yuzasi C bo'lib uning yuza tozaligi Rz 40 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 14 kv dadir.

Ishlab chiqarish uchun zagotovka tanlashda ishlab chiqarish seriyasi va unga bog'liq ravishda zagotovka aniqlik darajasini xisobga olish zarur, chunki quyish sexlarida zagotovka aniqlik darajasida bog'liq ravishda mexanizatsiya ishlari bajariladi va bu sarf aniqlikka bog'liq holda metal tejamkorligi bilan qoplanadi.

Detalimiz materiyali o'rniga Po'lat 40, Po'lat 15 Po'lat 35 Po'lat-20 Po'lat 60 ishlatish mumkin. Detalni zagotovkasini olishda issiqalayin shtamplash orqali GOST 8732-78 ga oddiy aniqlikda [1.26 bet] asosan olamiz.

1.1-jadval

Po'lat 45 ning kimyoviy tarkibi (DAST 1050-74),

Po'lat markasi	C	S _i	M _n
Po'lat 45	0.42÷0.47	0.17÷0.37	0.65

1.2-jadval

Po'lat -45 ning mexanik xossalari

Po'lat markasi	Mexanik xossalari					
	ν_g , kg/mm ²	G_{ots} , kg/mm ²	δ_s , %	Ψ , %	d_n , kg/mm ²	HB
Po'lat- 45	64–76	36	17	40	8	219

1.2 Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo'lgan mahsulot va zaxira qismlarining malumotiga ega. Bu malumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda malumotni turi, soni, o'lchami va materiali to'g'risida ham yetarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosan sexlar bo'yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko'rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig'uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o'ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi. Detalimiz "Vtulka 089" deb nomlanadi. Uning materiyali Polat 45 GOST 1050-74, og'irligi $m=0.195$ kg bo'lib o'rta seriyali ichlab chiqarish $N=100000$ dona sharoitida ishlab chiqiladi. Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{100000} = 2.41 \frac{\partial \text{ak}}{\partial \text{она}}$$

bu yerda:

$F_g = 4029$ *coam*—dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi;

$N=100000$ dona—yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqaruvda detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{100000 \cdot 3}{254} = 1181 \text{ dona}$$

bu yerda:

$a=3,6,12,24$ kun—partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;

$F=254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni

2. TEXNOLOGIK QISM

2.1 Detal konstruksiyasini texnologiyaviylikka taxlili.

Mashinasozlikda detallarni mexanik ishlov berishda asosan ularni texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari rol oynaydi. Demak detalni konstruktiv o'lchamlari va ularga qo'yilgan texnik talablarni o'rganilib yuzalarga mexanik ishlov berishda ularga ahamiyat berish lozim. Detalimiz "Vtulka 089" deb nomlanadi. Uning materiyali Po'lat 45 GOST 1050-74, og'irligi $m=0.195$ kg bo'lib o'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqiladi. Vtulka 089 nomli detalimiz mashinasozlikdagi metall kesuvchi dastgohlarni asosini tashkil qiladi. "Vtulka 089" nomli detalimiz mashina, gidravlik qurilmalarda, pnevmatik moslamalarda juda ko'plab foydalaniladi. Mashinasozlik dastgoxlari xalq xo'jaligi va sanoatda tutgan o'rni katta ahamiyatga ega.

Detalimizning asosiy yuzalariga yuzasi A uning yuza tozaligi Ra 2.5 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 6 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga E teshik bo'lib uning yuza tozaligi Ra 0.32 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 9 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga F teshik bo'lib uning yuza tozaligi Ra 2.5 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 6 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga B yuza bo'lib uning yuza tozaligi Ra 1.25 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga D yuza bo'lib uning yuza tozaligi Rz 3.2 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 8 kv dadir. Yordamchi yuzalari yuzasi C bo'lib uning yuza tozaligi Rz 40 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 14 kv dadir.

Bizga berilgan detalimiz O'lcham aniqligi bo'yicha quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$T = \frac{\sum T_i n_i}{\sum n_i};$$

Bu yerda

T_i -kvalitetdagi o'lchamlar

n-o'lchamlar soni

Bizning holat uchun: 6- kvalitetda 2 o'lcham

7- kvalitetda 2 o'lcham

8-kvalitet da 1 o'lcham

9-kvalitetda 1 o'lcham

Ushbu qiymatlarni formulaga qo'yib:

$$T = \frac{\sum T_i n_i}{\sum n_i}; = \frac{4 \cdot 1 + 6 \cdot 2 + 7 \cdot 1 + 8 \cdot 1 + 9 \cdot 1}{6} = 6.6 \text{ kv}$$

Demak detalimiz 6.8 kv o'lcham aniqligidadir.

Aniqlik koefitsientini quyidagi formula orqali aniqlaymiz

$$K_{or} = 1 - \frac{1}{T_{or}} = 1 - \frac{1}{6.6} = 0.85$$

Yuza tozaligi bo'yicha xisoblarni davom tamiz

$$III_{or} = \frac{\sum III_i n_i}{\sum n_i};$$

bu yerda:

III_i -yuza tozaligi bo'yicha aniqlik;

n_i -yuzalar soni;

Bizning xolat uchun :

1-ta yuza 3,2 mkm dan;

1-ta yuza 1.25 mkm dan;

1-ta yuza Rz 40 dan;

2-ta yuza 2.5 dan

1-ta yuza 0.32 dan;

U xolda yuza tozaliklari bo'yicha detal aniqligi :

$$III_{or} = \frac{\sum III_i n_i}{\sum n_i} = \frac{1 \cdot 3,2 + 1 \cdot 1.25 + 1 \cdot 40 + 2 \cdot 2.5 + 1 \cdot 0.32}{6} = 9.8 \text{ mkm.}$$

U xolda yuza tozalik koefitsienti

$$K = \frac{1}{III_i} = \frac{1}{9.8} = 0,10$$

Bu xisoblardan ko'rinib turibdiki detalimiz o'lcham aniqligi bo'yicha 13-kvalitet aniqligida yuza tozaligi bo'yicha Rz 0.1 mkm bo'ladi.

3.1 Zagotovka turini tanlash.

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo'linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish uchun mexanik ishlanish zarur bo'lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

1. qora va rangli metallardan quyish yo'li bilan;
2. bosim bilan ishlash (bolg'alash va shtamplash) orqali;
3. qora va rangli metallar prokatidan;
4. metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo'li bilan);
5. payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo'li bilan;
6. metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o'lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani hal qilishda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo'lishini taminlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli qilib, zagotovka tannarxi kam bo'lgandagi usuli hisoblanadi. material Po'lat 45 GOST 1050-74, og'irligi $m=0.195$ kg bo'lib o'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida o'rta seriyali ishlab chiqarish $N=100000$ dona ishlab chiqiladi.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovka bahosi quyidagi formula orqali xisoblanadi: Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani optimal tayyorlash usuli shtamplash usulidan foydalanamiz.

$$S_{zag}=M+\sum C_{o.z}$$

Bu yerda:

M-zagatovka materialining sarflanishi;

$\sum C_{o.z}$ -texnologik operatsiyani to'g'rilash uchun, donali zagatovkalar qiymati;

$$C_{o.z} = \frac{C_{n.3} \cdot T_{dona}}{60 \cdot 100};$$

Bu yerda:

$C_{n.3}$ -ishchi joyida keltirilgan sarf (so'm/soat)

T_{dona} -bitta operatsiya uchun donabay kalkulyatsiya vaqti; [25] dan bir soat jihoz ishi uchun 1838-1629 so'm/soat.

$$C_{o.z} = \frac{C_{n.3} \cdot T_{dona}}{60 \cdot 100} = \frac{883 \cdot 2.4}{60 \cdot 1000} = 0.035 \text{ so'm /soat.}$$

Shtampning og'irligiga ko'ra zagatovka materialining sarfini aniqlaymiz:

$$M=QS-(Q-q)\frac{S_{chiq}}{1000}=0,42 \cdot 3200-(0,42-0.195)\frac{21600}{1000}=1295,4$$

Bu yerda:

Q-zagatovka og'irligi kg;

S-bir kg zagatovka materialining baxosi so'm;

q-detaling yillik massasi kg;

S_{chiq} -bir tonna chiqindi baxosi so'm ;

$$S_{zag} = M + \sum C_{o.z} = 1041.28 + 0.73 = 1042.01 \text{ so'm}$$

Metallidan foydalanish koefitsentini quyidagi formula orqali xisoblaymiz:

$$K = \frac{Q_{det}}{Q_{zag}};$$

Bu yerda:

Q_{det} -detal og'irligi, 0.195

Q_{zag} =zagatovka og'irligi,kg 0.42

$$K = \frac{Q_{det}}{Q_{zag}} = \frac{0,195}{0,42} = 0,46$$

2.3 Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish.

2.1-jadval

Ope ratsi ya №	Operatsiya nomi va o'tishlar mazmuni	Baza lash yuza si	Maxka mlash yuzala ri	Dastgoh nomi va turi
005	Tokarlik operatsiyasi			
	A o'rnatish			Tokarlik
1	A yon yuza Ø66 mm L=32 mm saqlanib yo'nilsin	D,S	B	16K20
2	B yuza Ø35 mm L=16 mm saqlanib yo'nilsin			dastdoxi
3	K ichki yuza Ø22 mm L=32 mm saqlanib parmalansin			
4	A yuzaga 1x45 mm faska ochilsin.			
010	Tokarlik operatsiyasi			
	B o'rnatish			
1	E yon yuza L=34 mm Ø66 mm saqlanib qora yo'nilsin.	A,B	C	Tokarlik
2	D yuza L=12 mm Ø28 mm saqlanib yo'nilsin.			
3	E yuzada 1x45 faska ochilsin			16K20
5	C yuzada 0.5x45 faska oochilsin			dastdoxi
015	Vertikal parmalash dastgoxi			
	C o'rnatish			
1	M yuzada 6 ta teshiklar Ø8 mm L=6 mm saqlanib parmalansin	D,E	B	Vertikal parmalash
				Dastgohi 2H125
020	Sidirish	M	D	
	K yuzada shponka ariqchasi ochilsin			

Bizga berilgan detalimiz mashinasozlikda, sanoatda ,qishloq xojaligidagi mashina,mehanizm va uzellarda juda ko'plab foydalinadi. Detalimiz "Vtulka 089" deb nomlanadi. Uning materiyali Po'lat 45 GOST 1050-74, og'irligi $m=0.195$ kg bo'lib o'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqiladi. Vtulka 089 nomli detalimiz mashinasozlikdagi metall kesuvchi dastgohlarni asosini tashkil qiladi. "Vtulka 089" nomli detalimiz mashina, gidravlik qurilmalarda , pnevmatik moslamalarda juda ko'plab foydalaniladi. Mashinasozlik dastgoxlari xalq xo'jaligi va sanoatda tutgan o'rni katta ahamiyatga ega.

Detalimizning asosiy yuzalariga yuzasi A uning yuza tozaligi Ra 2.5 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 6 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga E teshik bo'lib uning yuza tozaligi Ra 0.32 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 9 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga F teshik bo'lib uning yuza tozaligi Ra 2.5 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 6 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga B yuza bo'lib uning yuza tozaligi Ra 1.25 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. Yana asosiy yuzalariga D yuza bo'lib uning yuza tozaligi Rz 3.2 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 8 kv dadir. Yordamchi yuzalari yuzasi C bo'lib uning yuza tozaligi Rz 40 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 4 kv dadir.

Detalimizga mexanik ishlov berishda murakkab yuzalar mavjud emas. Ularga mexanik ishlov berishda tokarlik 16K20 dastgoxidan foydalanamiz. Teshiklarga mexanik ishlov berishda vertikal parmalash 2H125 dastgoxidan foydalanamiz.

Detalimiz materiyaliga ko'ra unga ishlov beruvchi metal kesuvchi asboblardan o'tuvchi keskich, yo'nib kengaytiruvchi kesuvchi hamda faska ochuvchi keskichlardan, teshiklarga ishlov berishda parma, zenker foydalanish qulaylik tug'diradi. Ularning kesuvchi qism materiyali T15K6 yoki tezkesar po'lat R18, R6M5 materiyallaridan foydalanamiz. Teshiklarni ochishda konduktor plitada maxsus moslamalardan foydalanish katta ahamiyatga ege bo'ladi.

2.4. Zagotovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi.

Berilgan detalda C yuzani D=60 mm L=17 mm uzunlikda qora, toza yo'nilsin, yo'nishda qo'yimlar miqdorini va oraliq chegaraviy o'lchamlarni hisoblaymiz.

Qora yo'nishda Rz=200 mkm, T=300 mkm. ([5] 63-bet 4,3 jad)

Toza yo'nishda Rz=50 mkm, T=50 mkm.

Qora jilvirlashda yo'nishda Rz=10mkm, T=20 mkm. ([5] 64-bet 4,5 jad)

Toza jilvirlashda yo'nishda Rz=5mkm, T=15 mkm.

Qo'yimningtashqi yuzalarini xisoblashda:

$$2z_{i_{\min}} = 2(Rz_{i-1} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon^2}) \quad (62\text{-bet } 4,2 \text{ jad}).$$

Berilgan zagatovkamiz uchun fazoviy chetlanishlarning umumiy qiymati quyidagi fo'rmla bilan aniqlanadi:

$$\rho = \sqrt{\rho_{\text{CM}}^2 + \rho_k^2 + \rho_{\text{U}}^2} \quad (68\text{-bet } 4,7 \text{ jad}).$$

$$l \leq \frac{144}{2} = 72 \text{ mm}$$

$$\rho_{kor} = \Delta_k \cdot L = 0,6 \cdot 70 = 42 \text{ mkm} \quad (68\text{-bet } 4,7 \text{ jad}).$$

$$\rho_{\text{U}} = \sqrt{\left(\frac{\delta_3}{2}\right)^2 + (0,25)^2} = \sqrt{\left(\frac{2}{2}\right)^2 + (0,25)^2} = 1030 \text{ mkm} \quad (89 - \text{bet})$$

$$\rho = \sqrt{\rho_{\text{CM}}^2 + \rho_k^2 + \rho_{\text{U}}^2} = \sqrt{1300^2 + 42^2 + 1030^2} = 1659,1 \text{ mkm}$$

Qora ishlov berishdan so'ng qoldiq fazoviy chetlanish quyidagiga teng bo'ladi:

$$\rho_1 = \rho \cdot 0,06 = 1659,1 \cdot 0,06 = 99,54 \text{ mkm}$$

$$\rho_2 = \rho \cdot 0,04 = 1659,1 \cdot 0,04 = 66,36 \text{ mkm}$$

$$\rho_3 = \rho \cdot 0,02 = 1659,1 \cdot 0,02 = 33,18 \text{ mkm}$$

O'rnatishda hosil bo'ladigan xatoliklarni aniqlaymiz.

$$\varepsilon_y = \sqrt{\varepsilon_m^2 + \varepsilon_o^2} \quad (73\text{-bet}).$$

Berilgan detalda o'lchov baza bilan o'rnatish bazasi bir-biriga mos kelgani uchun bazalash xatoligi $\varepsilon_b=0$ ga deb qabul qilamiz. U holda

$$\varepsilon_M = 500 \text{ mkm (76-bet 4,10 jad)}$$

$$\varepsilon_6 = 0 \quad \varepsilon_y = \varepsilon_M = 500 \text{ mkm}$$

$$\varepsilon_{y_1} = 500 \cdot 0,06 = 30 \text{ mkm}$$

$$\varepsilon_{y_2} = 500 \cdot 0,04 = 20 \text{ mkm}$$

$$\varepsilon_{y_3} = 500 \cdot 0,02 = 10 \text{ mkm}$$

Qiymatlarga asosan oraliq, o'tishlardan minimal qo'yimlarni qiymatlarini quyidagi fo'rmuladan foydalanib hisoblaymiz:

Yo'nishda minimal qo'yim miqdori.

Qora

$$2z_{min} = 2 \left(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon^2} \right) =$$

$$2 \left(200 + 300 + \sqrt{1659,1^2 + 500^2} \right) = 4465,6 \text{ mkm} = 4,4 \text{ mm}$$

Toza

$$2z_{min} = 2 \left(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon^2} \right) = 2 \left(50 + 50 + \sqrt{99,54^2 + 30^2} \right) =$$

$$407,9 \text{ mkm} = 0,4 \text{ mm}$$

$$\text{Qora jilvirlash } 2z_{min} = 2 \left(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon^2} \right) =$$

$$= 2 \left(10 + 20 + \sqrt{66,36^2 + 20^2} \right) = 198,6 \text{ mkm} = 0,2 \text{ mm}$$

$$\text{Toza jilvirlash } 2z_{min} = 2 \left(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon^2} \right) =$$

$$= 2 \left(5 + 15 + \sqrt{33,18^2 + 10^2} \right) = 109,3 \text{ mkm} = 0,11 \text{ mm}$$

$$h_6 = 0,019 \text{ mm}$$

$$D = 60 - 0,019 = 59,981 \text{ mm}$$

Hisobiy o'lchamlarni hisoblaymiz.

$$D_1 = 59,981 + 0,11 = 60,09 \text{ mm}$$

$$D_2 = 60,09 + 0,2 = 60,29 \text{ mm}$$

$$D_3 = 60,29 + 0,4 = 60,69 \text{ mm}$$

$$D_4=60,69+4,4=65,09 \text{ mm}$$

Dopusk miqdori

$$\delta_{zag}=2000 \text{ mkm (143-bet 22-jad)}$$

$$\delta_{qora}=740 \text{ mkm (8-bet 4-jad)}$$

$$\delta_{toza}= 120 \text{ mkm (8- bet 4-jad)}$$

$$\delta_{qorajilvir}=46 \text{ mkm (9-bet 4-jad)}$$

$$\delta_{tozajilvir}= 19 \text{ mkm (9-bet 4-jad)}$$

Chegaraviy o'lchamlarni xisoblaymiz:

$$D_{max1}=59.981 + 0,019 = 60$$

$$D_{max2}=60,09 + 0,046 = 60,136 \text{ mm}$$

$$D_{max3}=60,29 + 0,12 = 60,41 \text{ mm}$$

$$D_{max4}=60,69 + 0,74 = 61,43 \text{ mm}$$

$$D_{max5}=65,09 + 2 = 67,09 \text{ mm}$$

Xisobiy qo'yimlarni xisoblaymiz:

$$Z_{max1}^{np} = 60,136 - 60 = 0,136 \text{ mm}$$

$$Z_{max2}^{np} = 60,41 - 60,136 = 0,274 \text{ mm}$$

$$Z_{max3}^{np} = 61,93 - 60,41 = 1,52 \text{ mm}$$

$$Z_{max4}^{np} = 67,09 - 61,43 = 5,66 \text{ mm}$$

$$Z_{min1}^{np} = 60,09 - 59.981 = 0,019 \text{ mm}$$

$$Z_{min2}^{np} = 60,29 - 60,09 = 0,2 \text{ mm}$$

$$Z_{min3}^{np} = 60,69 - 60,29 = 0,02 \text{ mm}$$

$$Z_{min4}^{np} = 65,09 - 60,69 = 4,4 \text{ mm}$$

Tekshirish.

$$Z_{max}^{np} - Z_{min}^{np} = 5,66 - 4,4 = 1,26 \text{ mm}$$

$$\delta_{zag} - \delta_{det} = 2 - 0,74 = 1,26 \text{ mm}$$

Demak xisob to'g'ri

$$Z_{0min} = Z_{max1}^{np} + Z_{max2}^{np} + Z_{max3}^{np} + Z_{max4}^{np} = 0,136 + 0,274 + 1,52 = 1,93 \text{ mm}$$

$$d_{znom} = 60 + 1,93 = 61,93 \text{ mm}$$

2.5 Kesish rejimini xisoblash

005.Tokorlik operatsiyasi

1 o'tish A tores yuza $\varnothing 66$ mm $l=17$ mm saqlanib yonilsin. Ishlov beruvchi dastgoh Tokorlik dastgohi 16K20 o'tuvchi keskich kesuvchi qism materiali T15K6 keskich giometrik o'lchamlari $\gamma=15^\circ$; $\alpha=12^\circ$; $\lambda=0$; $\varphi=20^\circ$; $r=1$ mm

Kesish maromlari.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda

$$t=2 \text{ mm}$$

2.Surish qiymatini aniqlaymiz. Karta T2

$$S_o=0.6 \text{ mm/ayl.}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korrektirovkalab $S_o=0.6$ mm/ayl ni qabul qilamiz.

3.Keskichni turg'unlik davrini aniqlaymiz.

Bunda bitta keskich bilan ishlov berishda $T=30...60$ daq ekanligini e'tiborga olib $T=60$ daq deb qabul qilamiz. Karta T3

4.kesishdagi tezlik. karta T4

$$V=V_j \cdot k_1 \cdot k_2 \cdot k_3 \text{ bu yerda}$$

Agar $t=3$ mm bo'lsa, $S=0.6$ mm/ayl bo'lsa,materiali Po'lat bo'lsa, kesuvchi materiali T15K6 bo'lsa $V_j=170$ m/daq

To'g'rilash koefitsentlari $k_1=1.0$, $k_2=1.0$, $k_3=1.0$

U holda

$$V=V_j \cdot k_1 \cdot k_2 \cdot k_3=170 \text{ m/daq}$$

5.Shpindelni aylanishlar soni

$$n = \frac{1000 V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 170}{3.14 \cdot 66} = 1691 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korrektirovka qilib haqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1500$ ayl/daq ni qabul qilamiz.

6.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 66 \cdot 1500}{1000} = 150.7 \text{ m / min}$$

7.kesishdagi kuch karta T5

$$P_z = P_j \cdot k_1 \cdot k_2 = 70 \cdot 0.9 \cdot 0.75 = 47.25 \text{ N}$$

8.Asosiy vaqtni hisoblaymiz

$$T_a = \frac{L_{uo}}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L_{iyu} = l + y + \Delta$

bu erda: $l = 16 \text{ mm}$,

keskichni botishi $\Delta = 1 \dots 3 \text{ mm}$,

keskichni chiqishi $y = t \cdot \text{ctg} \varphi = 2 \cdot \text{ctg} 60^\circ = 2 \cdot 0.58 = 1.16 \text{ mm}$

$$L = 16 + 1 + 1.16 = 18.16 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{18.16}{1500 \cdot 0.6} = 0.02 \text{ daq}$$

2.6.Vaqt me`yorini hisoblash.

Texnik me`yorlash deganda ma`lum bir ishni bajarish uchun sarflangan vaqt me`rini to`g`ri belgilash ishlab chiqarish uchun muxim ahamiyatga ega ishni bajarish uchun sarflangan vaqt birligi texnologik jarayonni qanday darajada takomillashganligini ko`rsatuvchi asosiy omillaridan biridir.

Vaqt me`yorini texnik hisoblar va taxminlar asosida dastgohlarni va kesuvchi asboblarni imkoniyatlaridan to`liq foydalanishini ishlov berilayotgan detalga qo`yilgan texnikaviy shartlarini inobatga olib aniqlanadi.

Mashinasozlikda vaqt me`yorini belgilash metall kesish dastgohlarida bajariladigan alohida operatsiya uchun sarflangan vaqtni yoki vaqt birligi ichida tayyorlanadigan detallar miqdorini aniqlash demakdir.

SHunday qilib texnik asoslangan vaqt me`yori deganda ma`lum bir tashkiliy – texnikaviy sharoitlarda ishlab chiqarish vositalaridan ilg`or usullar yordamida unumli foydalanib texnologik jarayon operatsiyasini bajarish uchun sarflangan vaqt tushuniladi.

Texnik vaqt me`yorini aniqlash aloxida operatsiya bajarishni taxlil qilib xar bir ish uchun sarflangan vaqtni xisoblash asosida olib boriladi.

Seriyali ishlab chiqarish sharoitida vaqtlarni texnik me`yorlash qabul qilingan, kesish maromlari bo`yicha xisobiy analitik usulida bajariladi.

Donali kalkultatsion vaqt quyidagicha aniqlanadi.

$$T_{\partial.k} = T_a + T_{\bar{e}p} + T_{mex} + T_{maui} + T_{\partial am} + \frac{T_{m.y}}{n}; \partial ak$$

bu erda:

T_a —ishlov berishga sarflangan asosiy vaqt, daq

T_{yor} —asoiy ishni bajarish uchun zarur boʻlgan yordamchi xarakatlarga sarflangan vatt, daq

$T_{op}=T_a+T_{yor}$ —operativ vaqt, daq

T_{tex} —texnik xizmat koʻrsatish vaqti, asosiy vaqtni 3% iga toʻgʻri keladi, daq

T_{tash} —tashkiliy xizmat koʻrsatish vaqti, operativ vaqtda 2.5% iga toʻgʻri keladi, daq

T_{dam} —dam olish vaqti, operativ vaqtdan 5% iga toʻgʻri keladi, daq

$T_{t,ya}$ — tayyorlov yakuniy vaqt, daq

n —partiyadagi detallari soni, dona.

2.2-jadval

operatsiya	T_a , daq	$T_{o`r}$, daq	T_{bosh} , daq	$T_{o`l}$, daq	T_{yor} , daq	T_{op} , daq	$T_{t,t}$, daq	$T_{d,k}$, daq
005	0.36	0.07	0.12	0.18	0.7	0.09	25	1.3
010	1.5	0.4	0.45	0.24	2.01	3.51	18	3.78
015	0.56	0.4	0.08	0.04	0.98	1.56	18	1.66
020	2.14	0.14	0.34	0.18	1.14	3.28	10	3.59

3. KONSTRUKTORLIK QISM

3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi

